

**O'ZBEKISTON TOG'LARIDA TARQALGAN JUNIPERUS L. TURKUMI:
BOTANIK TAVSIFI, VAKILLARI VA AHAMIYATI.**

Yuldasheva Gulsanam Ergash qizi

Andijon davlat pedagogika institute biologiya yo'nalishi 203-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. (archa) turkumi vakillarining botanik tavsifi, ularning turlari va ekologik ahamiyati yoritilgan. Juniperus turkumiga kiruvchi o'simliklarning asosiy biologik xususiyatlari, tarqalish areallari va tabiat muhofazasidagi roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu o'simliklarning dorivor, manzarali va xo'jalik ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Abstract: *This article discusses the botanical description and importance of the Juniperus L genus in the mountains of Uzbekistan. It discusses the main biological factors of plants belonging to the Juniperus genus, their range and their role in nature conservation. Information page about the medicinal, ornamental and economic importance of the plants in question.*

Абстрактный: *В данной статье даны ботаническое описание и значение можжевельника L. в горах Узбекистана. Рассмотрены основные биологические факторы растений рода Juniperus, их ареал и роль в охране природы. Информационная страница о лекарственной, декоративной и экономической ценности рабочих раст*

Kalit so'zlar : *Juniperus L., archa, O'zbekiston tog'lari, botanik tavsifi, Ekologik ahamiyati, Dorivor o'simliklar, manzarali o'simliklar.еный.*

Keywords: *Juniperus L., juniper, mountains of Uzbekistan, botanical description, Ecological significance, Medicinal plants, ornamental plants.*

Ключевые слова: *Juniperus L., можжевельник, горы Узбекистана, ботаническое описание, экологическое значение, лекарственные растения, декоративные растения.*

Archa (Juniperaceae) - Sarvdoshlilar oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi. 70 ga yaqin turi bor. Archa bir jinsli yoki ikki jinsli bo'lib, shamol yordamida changlanadi. Archaning erkak g'ubbasining sarg'ish, 3-6 changdonli qipiqsimon changchilaridan iborat. Urg'ochi g'ubbalari yashil bo'lib, qarama-qarshi yoki oldinma-keyin o'rnashgan urug'chi barg va urug' kurtakdan iborat. G'ubbalari yumaloq bo'lib, diametri 5-20 mm atrofida, ichida 1-10 dona urug' bor. Archa mart-may oylarida gullaydi. Archaning ko'pchiligi o'rta mintaqalarda o'sadi. Ba'zi turlari tropik hududlardagi tog'larda uchraydi. Masalan, Saryarcha, O'rik archa, Zarafshon archasi, Qora archa kabi turlar O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'zbekiston tog'larida esa u tog'-o'rmon aralash zonalarini tashkil qiladi.

Archa havoni tozalovchi o'simliklardan biri hisoblanadi. Uning asab tizimiga ijobiy ta'siri bor. Shuning uchun archa yog'ochlaridan yostiqlar tayyorlanadi. Ushbu yostiqlar asabni tinchlantirishga va nerv tizimiga foyda beradi. Archa shamollash, uyqusizlik va bo'g'im kasalliklarida ham qo'llaniladi. Qadimdan chaqaloqlarning o'rovlarini tozalashda archaning quritilgan barglaridan foydalanilgan. Archa revmatizm kasalligiga ham davo bo'ladi. Revmatizm kasalligini streptokokk bakteriyasi keltirib chiqaradi, archa esa ushbu bakteriyani yo'q qiladi. Buning uchun archaning igna barglaridan foydalaniladi. Archaning yosh novdalari va yog'i tibbiyotda ishlatiladi. Yosh novdalardan efir moyi olinadi. G'ubba mevasida qandlar, oshlovchi bo'yoq, efir moyi va boshqa foydali moddalar bor. Xalq tabobatida archaning g'udda mevasi tayyorlangan qaynatma ichki a'zolar kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Archa yog'ochi qurilish materiallari uchun ham ishlatiladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida yaylovlar va to'qayzorlarni barqaror saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Archa daraxti ekologik barqarorlik uchun muhimdir. G'arbiy hududlarda uning yo'qolib borishi kuzatilmoqda. Bu holat hayvonlar yashash joylarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Juniperus L. (Archa) turkumiga mansub doimiy yashil, ignabargli daraxt va butalardan iborat. Ushbu turkumga kiruvchi o'simliklar qattiq, ingichka ignabarglar yoki tangachabarglarga ega bo'lib, ko'pincha quruq va tog'li hududlarga moslashgan. Mevalari kichik, yumaloq yoki oval shakldagi ko'k, ko'kimtir-qora rangdagi

sharsimon ko'zachalardan iborat bo'lib, ular konussimon tuzilishga ega. O'zbekistonda uchraydigan Juniperus vakillari. O'zbekistonning tog'li hududlarida asosan quyidagi Juniperus turlari uchraydi:

1. Juniperus turkestanica (Turkiston archasi) – Ko'proq Pomir-Oloy va Hisor tog' tizmasida tarqalgan. Qari daraxtlari 1000 yilgacha yashashi mumkin.

2. Juniperus seravschanica (Zarafshon archasi) – Zarafshon tizmasida keng tarqalgan, qurg'oqchil sharoitga moslashgan.

3. Juniperus semiglobosa (Yarimsharsimon archa) – Ko'proq tog' yonbag'irlarida uchraydi, mo'rtadil nam iqlimga moslashgan.

4. Juniperus foetidissima (Xushbo'y archa) – Kam uchraydigan turi bo'lib, o'rmonzorlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

3. Juniperus turkumining ahamiyati

Ekologik ahamiyati: Tog' ekotizimlarini barqaror saqlashda muhim o'rin tutadi. Yerni eroziyadan himoya qiladi va atmosfera havosini tozalashga yordam beradi. Dorivor xususiyatlari: Archaning efir moylari antibakterial, yallig'lanishga qarshi va immunitetni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega. Mevalari xalq tabobatida diuretik va organizmni tozalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Manzarali ahamiyati: Bog' va xiyobonlarni obodonlashtirishda keng qo'llaniladi. Yog'ochchilikda qo'llanilishi: Archaning yog'ochi mustahkam va chidamli bo'lib, qurilish va hunarmandchilikda ishlatiladi. O'zbekiston tog'larida Juniperus turlarining himoya qilinishi ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ularni muhofaza qilish va ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A.A. (2005). O'zbekiston o'simliklari: turlari va biologik xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karimov, S.K. (2010). Markaziy Osiyo ignabargli o'simliklari va ularning ekologik o'ri. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. To'rayev, B.T. (2017). O'zbekistonning dorivor o'simliklari va ularning qo'llanilishi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Flora of Uzbekistan. (1963). Volume III: Gymnosperms. Tashkent: AN UzSSR.

5. Internet manbalari: O'zbekiston Fanlar akademiyasining rasmiy saytlari va ekologik tadqiqotlar.